

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHADIYEVA DILNOZA AMINOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA OLIY TA‘LIM TIZIMINING YO‘LGA**  
**QO‘YILISHI VA RIVOJLANTIRILISHI**  
**(Qarshi davlat universiteti misolida, 1945-2020 yy.)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD)**

**Contents of the dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)**

**Shadiyeva Dilnoza Aminovna**

О‘zbekistonda oliy ta‘lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi va rivojlantirilishi  
(Qarshi davlat universiteti misolida, 1945-2020 yu.)..... 5

**Шадиева Дилноза Аминовна**

Становления и развития системы высшего образования в Узбекистане  
(на примере Каршинского государственного университета, 1945-2020 гг.).. 23

**Shadiyeva Dilnoza Aminovna**

The history of the formation and development of the higher education system  
in Uzbekistan (on the example of Karshi State University, 1945-2020)..... 45

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications..... 49

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**PhD.03/27.02.2021.Tar.70.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**SHADIYEVA DILNOZA AMINOVNA**

**O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINING YO‘LGA**  
**QO‘YILISHI VA RIVOJLANTIRILISHI**  
**(Qarshi davlat universiteti misolida, 1945-2020 yy.)**

**07.00.01 – O‘zbekiston tarixi**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**  
**AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2023**

**Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/Tar582 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Muminova Gavxar Esanovna**  
tarix fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Qobilov Eshbolta Otamurodovich**  
tarix fanlari doktori, professor

**Vasiyeva Dilorom Ibragimovna**  
tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD. 03/27.02.2021. Tar.70.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "13" 10 soat 9<sup>00</sup> da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz). Qarshi davlat universiteti.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (800 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "27" 09 kuni tarqatildi.  
(2023-yil "27" 09 daqi raqamli reyestr bayonnomasi).



**B.J.Eshov**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
t.f.d., professor

**N.N.Rajabova**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash kotibi,  
t.f.n., dotsent

**Yu.A.Ergasheva**

Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi,  
t.f.d., professor

## KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahon miqyosida oliy ta'lim tizimi samaradorligi jamiyat rivojining muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, buning natijasini rivojlangan xorijiy davlatlar ta'lim shaklining o'quv jarayoni sifatini oshirish bilan bog'liq jarayonlarda e'tirof etish joiz bo'ladi. Bu yo'nalishda qator xalqaro tashkilotlarning samarali faoliyati ham yo'lga qo'yilgan. Jumladan, BMTning ta'lim sohasidagi tadbirlarini YUNESKO xalqaro tashkiloti muvofiqlashtirib, tashkilotning tashabbusi bilan dunyoning turli mamlakatlarida ta'lim sifatini oshirish, mazkur sohada tegishli zamonaviy standartlarni joriy etish, turli innovatsiya loyihalarini amalga oshirish yuzasidan tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, mazkur sohada mamlakatimizda ham bir qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, O'zbekiston YUNESKOning Ta'lim sohasidagi Global hamkorligiga a'zo bo'ldi.

Dunyoning qator ilmiy-tadqiqot markazlari va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim tizimining turli bosqichlarida kechayotgan islohotlarning borishini o'rganish, o'quv jarayoniga ilg'or innovatsiya usullarini joriy etish, kuchli raqobatni shakllantirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash, muayyan hududlarda oliy ta'limning yangi yo'nalishlarini tashkil etish masalalariga bag'ishlangan turkum ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Respublikamizda mustaqillik yillarida jamiyat hayotining barcha jabhalarida bo'lgani kabi oliy ta'lim sohasida ham keng qamrovli islohotlar amalga oshirildi. 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida<sup>1</sup> davlat oliy ta'lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berish, shu jumladan, ular tomonidan mehnatga haq to'lash, xodimlar soni, to'lov-kontrakt miqdori va ta'lim shaklini mustaqil belgilash amaliyotini yo'lga qo'yish borasidagi ishlarni yanada takomillashtirish xususida fikr-mulohazalar yuritilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va tizim faoliyatini takomillashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya dolzarbligini belgilash uchun muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni // <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>.

“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Mavzuga doir ilmiy adabiyotlarni davriyligi va mazmuniga ko‘ra uch guruhga ajratish maqsadga muvofiq bo‘ladi: 1) sovet davrida yaratilgan adabiyotlar; 2) mustaqillik davridagi ilmiy ishlar; 3) xorijiy nashrlar.

*Birinchi guruhga* kiritilgan sovet davri mualliflaridan K.Y.Volkova, R.X.Karimov, R.O.Sharipov, A.Q.Valiyev, R.X.Zuhurov, R.Agzamova, S.S.Sodiqov, N.Rahmonov, G‘.Abduraxmonov, K.O.Oqilov, M.A.G‘ulomova<sup>2</sup>. kabilarning asarlari soha tarixshunosligida muhim ahamiyatga ega. Ular orasida, ayniqsa, A.K.Valiyevning asari diqqatga sazovor bo‘lib, unda oliy ta’lim tizimi muassasalarida mahalliy millat vakillari salmog‘i masalasiga e’tibor qaratilgan. Tabiiyki, ushbu mualliflar asarlarida sovet davri hukmron mafkurasi ta’siri sezilib turadi.

*Ikkinchi guruhga* kiruvchi asarlar, asosan, mustaqillik yillarida tayyorlangan bo‘lib, bu davrda tarixchilar ta’lim rivojlanishining tarixiy, nazariy jihatlarini ilmiy asosda o‘rganishni zaruriy hol sifatida qabul qildilar<sup>3</sup>.

Mustaqillik yillarida qisqa fursatda ta’lim sohasi masalalariga umumiy tarzda e’tibor berilgan qator asarlar paydo bo‘ldi<sup>4</sup>. Bunday asarlarning ayrimlarida biz o‘rgangan davr bo‘yicha ma’lumotlar mavjud bo‘lmas-da, umumiy tarzda masalaga yangi konseptual-metodologik jihatdan yondashilganligi bilan izohlanadi. Mualliflar

<sup>2</sup> Волкова К.Е. К вопросу об истории высшего образования в Узбекской ССР // Ученые записки ТГПИИЯ. – Ташкент, 1956. Вып. 1. – С. 3-20; Каримов Р.Х. Проблема кадровых специалистов и строительство высшей школы в Узбекистане в годы первой пятилетки // История СССР. – М., 1959. – № 6. – С. 19-29; Шарипов Р.О. Подготовка специалистов в высших учебных заведениях Узбекистана в 1929-1941 гг. // ОНУ. – Ташкент, 1963. – № 3. – С. 27-32; Валиев А.К. Формирование и развитие советской национальной интеллигенции в Средней Азии. – Ташкент, 1966. – 159 с.; Агзамова Р. Высшее образование в Узбекистане. – Ташкент, 1969; Садилов С.С. Очерки высшего образования в Узбекистане. – Ташкент, 1969; Садилов С.С. Высшая школа – кузница подготовки кадров. – Ташкент, 1974; Абдурахмонов Т. Высшая школа советского Узбекистана. – Ташкент: 1977; Акилов К.А., Гулямова М.А. Советская интеллигенция Узбекистана. Кн. 1. – Ташкент, 1978; Кн. 2 – Ташкент, 1979.

<sup>3</sup> Чориев А. Кадрлар – тараққийёт омили (Ўқитувчи кадрлар тайёрлашни яхшилаш ҳақида) // Иқтисод ва ҳисобот. – 1997. – № 7-8. – Б. 66-67; Каримов А. Педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш тизимига янгиликлар: Таълим, ислохот, ижтимоий ҳаёт // Касб-хунар таълими. – 2011. – № 1. – Б.2-5; Эргашева Ю.А. Ўзбекистонда олий таълим тизимидаги инновасион жараёнлар // “Ўзбекистонда фан, таълим ва ёшлар тарбиясидаги инновасион жараёнлар” мавзусидани Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши, 2015; Васиева Д. Ўзбекистонда таълим тизимидаги ўзгаришлар жараёни ва устувор йўналишлар // “Ўзбекистонда фан, таълим ва ёшлар тарбиясидаги инновасион жараёнлар” мавзусидани Республика илмий-амалий конференция материаллари. – Қарши, 2015; “Ўзбек адабиётшунослигида таҳлил ва талқин муаммолари” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Қарши, 2016;

<sup>4</sup> Йўлдошев Ж. Таълимимиз истиқлоли йўлида. – Тошкент: Шарк, 1996; Эргашева Ю. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития (50-60-е годы). – Ташкент: Фан, 1997; Қодиров Б. Таълим тизимидаги ислохотлар, мақсад ва йўналишлари. – Тошкент: Ўқитувчи. 1999; Махмудов Б. Қашқадарё халқ таълимнинг тараққийёт йўли. – Қарши: Насаф, 1999; Курбонов Ш., Сейтахлилов Э. Непрерывное образование в Национальной модели подготовки кадров. – Ташкент: Маърифат, 1999; Национальная модели подготовки кадров: влияние на развитие общества. – Ташкент: Университет, 1999; Кадрлар тайёрлаш миллий дастури: педагогик илмий тадқиқот муаммолари ва йўналишлари. – Тошкент: Фан, 1999; Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар. Даврий тўплам. – № 2. – Тошкент, 1999; Ўзбекистоннинг янги тарихи 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент, 2000; Йўлдошев Ж. Таълим янгиликлар йўлида. – Тошкент: Ўқитувчи, 2000; Содействие реформирований системы непрерывного образования Республики Узбекистан. – Ташкент: Молия, 2000;

O‘zbekiston ta’lim tizimiga tegishli ko‘plab aniq tarixiy dalillarni davlat arxivlari hujjatlariga asoslanib keltirishi bilan qimmatlidir.

Bu davrda ta’lim tizimini isloh qilish va uni jahon andozalari darajasiga chiqarish davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoridan joy oldi. Ta’limning uzluksizligi, umumta’lim va professional tayyorgarlikning muttasil chuqurlashib borishi, ta’lim tizimining tobora ijtimoiylashib, demokratlashib borishi ta’minlandi. Shu ma’noda mustaqillik yillarida O‘zbekiston ta’lim tizimining yo‘lga qo‘yilish holati va uning tarixini o‘rganishga bo‘lgan e’tibor yanada kuchaytirildi. Xususan, Qashqadaryo viloyatidagi Qarshi davlat universiteti tarixi masalasiga bag‘ishlangan ilmiy maqolalar, risola va monografiyalar yaratildi<sup>5</sup>. Mustaqillik yillarida oliy ta’lim tizimi tarixini o‘rganishga bag‘ishlangan nomzodlik va doktorlik ishlari ham himoya qilindi<sup>6</sup>.

Uchinchi guruhga kiruvchi manbalar xorij tadqiqotchilari ishlari hisobiga to‘g‘ri keladi<sup>7</sup>. Xorijlik mualliflar ham oliy ta’lim tizimiga jamiyat rivojini ta’minlovchi asosiy sohalaridan biri sifatida jiddiy e’tibor qaratib kelishdi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot ishi Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlar rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** mustaqillik yillarida oliy ta’lim tizimining yo‘lga qo‘yilishi va bu sohada amalga oshirilgan islohotlarni Qarshi davlat universiteti misolida ochib berishdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

---

<sup>5</sup> Жўракулов О. Қарши давлат университети. – Тошкент: Фан, 1999; Равшанов П. Қашқадарё: истиқлол арафасида. 1986-1989. – Тошкент: Маънавият, 2003; “Фан ва техника тараққиётида Қашқадарё олимларининг роли” мавзусидаги олима аёллар форуми материаллари. – Қарши, 2005; Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида: (Президент Ислоҳ Каримовнинг “Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли” рисоласидан келиб чиққан ҳолда, вилоятнинг иқтисодий-ижтимоий ривожига бир назар) / Муаллифлар гуруҳи раҳбари А.Эркаев. – Тошкент: Маънавият, 2007; Содиқов Т., Расулов Т., Бегматова Н., Ёднома. – Қарши, 2012; Содиқов Т., Расулов Т., Бегматова Н., Университет тарихидан лавҳалар 1 қисм. – Қарши: “Қарши давлат университети” нашриёти, 2013; Содиқов Т., Бўриев О., Бегматова Н., Университет тарихидан лавҳалар. (II қисм) – Қарши, 2015; Эгамов Н., Содиқов Т. Жануб жавоҳири. – Тошкент: Академнашр, 2016; Эргашева Й.А., Имомова Г. Қашқадарё илм юлдузлари. – Қарши, 2021;

<sup>6</sup> Халикова Р.Э. Развитие высшего исторического образования и науки в Узбекистане (на примере исторического факультета ТашГУ 1935-1994 гг.): Автореф. дисс... канд. ист. наук. – Ташкент: 1995; Хасанов Б. Национальная интеллигенция Узбекистана и исторические процессы. 1917-начало 50-х годов: Автореф. дисс... д-ра ист наук. – Ташкент, 2000; Васиева Д.И. Мустақиллик йилларида Ўзбекистонда университет таълимнинг шаклланиши ва ривожланиши: тажриба ва муаммолар (1991-2001 йй): Тарих фан. номз. дисс... автореф. – Тошкент, 2008; Эштемиров Ж.С. XX-XXI аср бошларида Қарши шаҳар маданияти.: Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2018; Боймуродов Ш.Т. Ўзбекистонда ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимидаги ўзгаришлар (1991-2016 йй.): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Тошкент, 2020; Шаропова Н.А. Ўзбекистон жанубий вилоятларида умумтаълим мактаблари тизимидаги ислохотлар ва унинг натижалари (1991-2017 йй): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Қарши, 2020; Абдуллаев У.Ш. Ўзбекистонда педагогик кадрлар тайёрлаш тизимидаги ютуқ ва муаммолар (1991-2018 йй.): Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс... автореферати. – Қарши, 2021 ва бошқалар.

<sup>7</sup> Богуславский М.В. XX век Российского образования. – М.: ПЕР СЕ, 2002; Белозерцев Е. Образование: историко-культурный феномен. – СПб.: Юрид.центр Пресс, 2004; Nadir Devlet. Ethnicity and power: relations between the Central Asian states. //http://sam.gov.tr / wp-content / uploads / 2012 / 02 / NadirDevlet; Adrienne L. Edgar. “Identities, Communities, and Nations in Central Asia: A Historical Perspective”.10/29/2001 panel: Edgar presentation. // http://socrates.berkeley.edu/~iseees/.

Qarshi davlat pedagogika institutining tashkil etilish jarayoni va institut moddiy-texnik bazasini mustahkamlash tadbirlarini yoritib berish;

sovet davridagi Qarshi davlat pedagogika institutida bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining holatini ochib berish;

mustaqillik yillaridagi Qarshi davlat universitetida bajarilgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning yo'lga qo'yilish jarayonini o'rganish;

universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanish jarayonini tavsif etish;

Qarshi davlat universitetda talaba yoshlar o'rtasida olib borilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga tavsif berish;

universitet talaba-yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlari va ularning natijalarini ko'rsatib berish;

tadqiq etilayotgan mavzu yuzasidan xulosa hamda tegishli taklif va tavsiyalar berishdan iborat.

**Tadqiqotning obyekti** Qashqadaryo viloyatidagi ilk oliy ta'lim muassasasi hisoblangan Qarshi davlat universitetining tashkil etilishi va uning respublika oliy ta'limi tizimidagi o'rni hisoblanadi.

**Tadqiqotning predmetini** mustaqillik yillarida O'zbekistonda oliy ta'lim tizimining yo'lga qo'yilishi va bu sohada amalga oshirilgan islohotlar, Qarshi davlat universitetining tashkil etilishi, universitetda o'quv-tarbiyaviy, ilmiy hamda ma'naviy-ma'rifiy, shuningdek jismoniy tarbiya va sport sohasidagi jarayonlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada tarixiylik tamoyili va tizimli tahlil, qiyosiy-xronologik, ketma-ketlilik, xolislik kabi zamaonaviy tarix fanida keng qo'llaniladigan usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyatida 1945-1956-yillarda oliy ta'limning ilk bosqichi va mustaqil pedagogika institutining barpo etilishi (1956-1958-yillar), institutda ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlanishi (1973-1985-yillar), ixtisoslashtirilgan oliy ta'limning rivojlanishi hamda xorijiy davlatlar bilan qo'shma dastur asosida kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi (1991-2021-yillar) kabi bosqichlarda shakllanganligi asoslangan;

sovet davrida, bir tomondan, Qarshi davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli o'qituvchi kadrlarni etishtirish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kadrlar tayyorlash ishidagi nooqilona siyosat tufayli umumta'lim maktablarini, ayniqsa, qishloq maktablarida kadrlar etishmasligi va ularning qo'nimsizligi yuqori bo'lgani aniqlangan;

Qarshi davlat universitetida talabalar va professor-o'qituvchilar soni dinamikasi tarixiy davrlarga bo'lingan holda aniqlanib, mustaqillikni dastlabki yillarida ta'lim sohasini isloh qilishda konservativ yo'nalishning tanlanishi, ijtimoiy rivojlanish muammolarining echimini topish muddatlarini kechiktirish siyosatining ilgari surilishi, o'quv rejalarida majburiy fanlar ulushining yuqoriligi kabi samarasiz mexanizmlar ta'sirida kadrlarning zamon talabidan ortda qolish omillari ko'rsatib berilgan;

oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy va ma'rifiy sohada tashkil etilgan tadbirlarning barkamol avlodni tarbiyalashda muhim o'ringa egaligi, talabalar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishi, oliy o'quv yurtlari talabalarining mahalliy, xalqaro hamda olimpiada musobaqalarida yuqori o'rinlarni egallashi uchun zamin yaratganligi Qarshi davlat universiteti misolida dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tizini isloh qilish va rivojlantirish, takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan;

oliy ta'limni tashkil etilish amaliyoti va nazariyasiga oid jahonda yetakchi davlatlar tajribalaridan O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari faoliyatini tashkil etish hamda o'quv-tarbiyaviy jarayonida qo'llash mumkin bo'lgan nazariy-uslubiy jihatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchligi.** Mazkur tadqiqotda tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo'llanilgani, xususan, O'zbekiston Milliy arxivi, Qashqadaryo viloyat davlat arxivi, Qashqadaryo viloyat hokimligi arxivi, Qarshi davlat universitetining joriy arxivi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarga, shuningdek, davriy matbuot nashrlariga asoslangani, dissertatsiya ma'lumotlari amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli idoralar tomonidan tasdiqlangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, oliy ta'lim tizimini tashkil etish, rivojlantirish va uning o'ziga xos jihatlarni aniqlash, huquqiy-me'yoriy bazasini takomillashtirish, oliy ta'lim tizimini o'rganishga oid nazariy xulosalar hamda uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shuki, O'zbekistonda tarix fani va uning tarkibiy qismi hisoblangan ilm-fan sohasi tarixining rivojlanishiga bevosita bog'liqligi bilan belgilanadi. Dissertatsiyadagi umumlashgan nazariy xulosalardan Qarshi davlat universiteti hamda boshqa oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayonida, shuningdek, oliy ta'lim sohasi bo'yicha o'quv-uslubiy, o'quv qo'llanmalari yozishda, tarix yo'nalishi talabalariga maxsus kurs, seminar mashg'ulotlarini olib borishda amaliy jihatdan foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mavzu yuzasidan ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Qashqadaryo viloyatida 1945-1956-yillarda oliy ta'limning ilk bosqichi va mustaqil pedagogika institutining barpo etilishi (1956-1958-yillar), institutda ilmiy-tadqiqot ishlarining rivojlanishi (1973-1985-yillar), ixtisoslashtirilgan oliy ta'limning rivojlanishi hamda xorijiy davlatlar bilan qo'shma dastur asosida kadrlar tayyorlashning yo'lga qo'yilishi (1991-2021-yillar) kabi bosqichlarda shakllanganligi hamda sovet davrida, bir tomondan, Qarshi davlat pedagogika institutida oliy ma'lumotli o'qituvchi kadrlarni etishtirish yo'lga qo'yilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan kadrlar tayyorlash ishida nooqilona siyosat tufayli umumta'lim maktablarini, ayniqsa, qishloq maktablarida kadrlar etishmasligi va ularning qo'nimsizligi yuqori bo'lgani kabi ma'lumotlardan "O'zbekiston tarixi" telekanalida efirga uzatilgan "Taqqimot" ko'rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan

(“O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston” teleradiokanali” davlat muassasasining 2022-yilning 23-sentabrdagi 02-29-1579-son ma’lumotnomasi). Bu esa yoshlar ongiga oliy ta’lim tizimida o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarda amalga oshirilayotgan islohotlar mohiyatini viloyat OTMLari misolida asoslashga xizmat qilgan;

Qarshi davlat universitetida talabalar va professor-o‘qituvchilar soni dinamikasi tarixiy davrlarga bo‘lingan holda aniqlanib, mustaqillikni dastlabki yillarida ta’lim sohasini isloh qilishda konservativ yo‘nalishning tanlanishi, ijtimoiy rivojlanish muammolarining echimini topish muddatlarini kechiktirish siyosatining ilgari surilishi, o‘quv rejalarida majburiy fanlar ulushining yuqoriligi kabi samarasiz mexanizmlar ta’sirida kadrlarning zamon talabidan ortda qolish omillari hamda oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy va ma’rifiy sohada tashkil etilgan tadbirlarning barkamol avlodni tarbiyalashda muhim o‘ringa egaligi, talabalar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish tadbirlarining keng miqyosda amalga oshirilishi, oliy o‘quv yurtlari talabalarining mahalliy, xalqaro hamda olimpiada musobaqalarida yuqori o‘rinlarni egallashi uchun zamin yaratganligi Qarshi davlat universiteti misolida dalillangani to‘g‘risidagi natijalaridan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi” darsligini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining (237-125) 2022-yil 9-sentabrdagi 302-sonli buyrug‘i va Qarshi davlat universitetining 2023-yil 3-iyundagi 04/2060-son ma’lumotnomasi). Bu esa Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy shakllanish sharoitida oliy ta’lim tizimni rivojlanish konsepsiyasini amalga oshirishga va ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning samaradorligiga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

**Natijalarning nashr etilishi.** Dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari jami 11 ta nashr qilingan ishlarda, jumladan, OAK ro‘yxatidan o‘rin olgan respublika, shuningdek, xorij jurnallarida chop etilgan 6 ta maqola hamda 5 ta ilmiy to‘plam va konferensiya materiallarida o‘z aksini topgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, ishning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti aniqlab olingan, tadqiqotning fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi va tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Sovet davrida O‘zbekistonda oliy ta’lim sohasidagi davlat siyosatining Qashqadaryo viloyatida amalga oshirilishi**” deb nomlanib, unda Qarshi davlat pedagogika institutining tashkil etilish jarayoni va

uni moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oliygohda bu davrda ilmiy-tadqiqot ishlarining borishi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

*“Qarshi davlat pedagogika institutining tashkil etilish jarayoni va oliygoh moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari”* deb nomlangan birinchi paragrafda Qarshi pedagogika institutining ochilishiga ta’sir etgan omillar xususida fikrlar umumlashtiriladi. Bunda urushdan keyingi og’ir yillarda O‘zbekistonda umumta’lim maktablari va o‘qituvchilari sonidagi qisqarishlar va uning sabablari asoslanadi. Masalan, O‘zbekistonda 1940-1941-o‘quv yili umumta’lim maktablari soni 5504 tadan 1944-1945-o‘quv yilida 4475 taga kamaydi<sup>8</sup>. Umumta’lim maktablarida 1940-1941-o‘quv yilida 36267 nafar o‘qituvchilar faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 1942-1943-o‘quv yilida ular soni 30616 nafarga qisqardi<sup>9</sup>. Respublika maktablarida 7000 nafar o‘qituvchi, xususan, Qashqadaryo viloyati umumta’lim maktablarida 320 nafar o‘qituvchi yetishmadi<sup>10</sup>.

O‘zbekistonda keng miqyosda qisqa muddatli kurslarda o‘qituvchilar tayyorlanar edi, 1944-yilda bu tizimda 5 ming nafardan ortiq o‘qituvchilar<sup>11</sup>, jumladan, Qashqadaryoda 125 nafar o‘qituvchi tayyorlandi. Jumladan, Qarshi pedagogika texnikumida 278 nafar sirtqi bo‘limda tahsil oldi. O‘qituvchilarning sifat va miqdoriy tarkibining biroz o‘shirishini Qashqadaryo viloyati misolida ham kuzatish mumkin. Chunonchi, 1944-yilda 2682 nafar o‘qituvchidan 79 nafari oliy ma’lumotli, 97 nafari o‘qituvchilar institutini, 728 nafari o‘rta va 1778<sup>12</sup> nafari to‘liq bo‘lmagan o‘rta ma’lumotga ega bo‘lgan bo‘lsa, 1945-yilda maktablarda ishlaydigan 2735 nafar o‘qituvchidan faqat 87 nafari oliy ma’lumotga ega bo‘lgan<sup>13</sup>.

Yuqorida ta’kidlangan omillarning barchasi Qashqadaryo viloyatida o‘qituvchilar tayyorlash bo‘yicha muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etdi. Shu bois, 1944-yilda Qarshi pedagogika bilim yurti qoshida o‘qituvchilar tayyorlash kursi tashkil qilindi<sup>14</sup>. 1945-yilda shu kurs negizida Buxoro birlashgan davlat pedagogika va o‘qituvchilar institutining Qarshi filiali tashkil etildi<sup>15</sup>. Ta’lim muassasaning ochilishi bilan bog‘liq tashkiliy jarayonlar o‘z o‘rnida uning moddiy-texnik bazasini shakllantirish, xususan, o‘quv binolari, o‘quv jihozlari, o‘qituvchilar uchun turar joy binolari, kadrlar muammosini hal etishni talab etdi. Filial uchun 7 yillik maktab binosidan 1 ta xona ajratildi. Talabalar uchun sobiq jamoa xo‘jaligi otxona binosi qayta ta’miralanib, yotoqxona sifatida berildi<sup>16</sup>. O‘qituvchilar turar joyi uchun esa Qarshi shahridagi Nuriddin Og‘aliq eshonning katta hovlisidagi mehmonxona va hujralar ajratildi. Keyinchalik maktab boshqa joyga ko‘chirilib, filial 8 ta auditoriyaga ega binoda faoliyat ko‘rsatdi. Filial binosi Ko‘chabog‘, Beklar, Oqmasjit qishloqlari qo‘rg‘onlari o‘rnida bunyod etib borildi. Bu joy balandliklar, bog‘ va chakalakzorlardan iborat edi. Ta’lim muassasasi

<sup>8</sup> O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘z MA), R-94-fond, 7-ro‘yxat, 91-ish, 1-varaq.

<sup>9</sup> Правда Востока, 1944 г., 29 сентябрь.

<sup>10</sup> Qashqadaryo viloyati davlat arxivi (QVDA), 249-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 109-varaq

<sup>11</sup> Правда Востока. 1944 г., 29 сентябрь.

<sup>12</sup> QVDA, 249-fond, 1-ro‘yxat, 2-ish, 92-94-varaqlar.

<sup>13</sup> QVDA, 249-fond, 1-ro‘yxat, 1-ish, 71-varaq.

<sup>14</sup> QVDA, 1-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 30-varaq.

<sup>15</sup> QVDA, 1-fond, 1-ro‘yxat, 417-ish, 89-varaq.

<sup>16</sup> QVDA, 1-fond, 1-ro‘yxat, 7-ish, 32-varaq.

ochilgan yilda tarix, til va adabiyot ixtisosligi bo'yicha 32 nafar talaba qabul qilinib, ularga P.Y.Mejinskiy, T.Yadixanova, M.Tohirzoda, N.Rahmonov, S.Rasulov kabi o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berdi<sup>17</sup>.

Qashqadaryo vohasining pedagogik kadrlarga bo'lgan ehtiyoji hisobga olinib, O'zbekiston Ministrlar Sovetining 1949-yil 27-oktabrdagi 1966-sonli qarori bilan mustaqil Qarshi o'qituvchilar instituti tashkil etildi<sup>18</sup>. Qarshi o'qituvchilar instituti sobiq pedagogika texnikumi binosida joylashtirilib, auditoriyalar yetishmasligi sababli o'qish 2 smenada tashkil etildi. Binoda jami 10 ta xona mavjud edi. Institut moddiy-texnik bazasi juda nochor edi. Kutubxonada o'zbek tilidagi adabiyotlar yetishmadi. Masalan, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti fanidan birorta ham darslik yo'q edi<sup>19</sup>.

1950-1951-o'quv yilida talabalar soni 150 nafarni tashkil etdi<sup>20</sup>. Ulardan 50 nafari o'zbek tili va adabiyoti bo'limida, 25 nafari rus tili va adabiyoti bo'limida tahsil oldi<sup>21</sup>. Institutda ta'lim ikki yillik bo'lib, to'liqsiz oliy ma'lumot berishga mo'ljallangan edi<sup>22</sup>.

Institutda ilmiy-pedagogik kadrlar masalasi bu davrda muammoligicha qoldi. 1952-1953-o'quv yilida institutda jami 23 nafar o'qituvchi faoliyat ko'rsatib, ularning 4 nafari rus, 12 nafari o'zbek millatiga mansub edi, 4 nafari esa katta o'qituvchi, 19 nafari assistent o'qituvchi hisoblardi<sup>23</sup>. Institutda, asosan yetti yillik o'zbek maktablari uchun rus va o'zbek tili hamda adabiyoti, fizika va matematika, tarix va konstitutsiya fanlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlandi. Dehqonobod, Chiroqchi, Miraki kabi tumanlarda o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj hisobga olinib, shu tumandan bo'lgan talabalar ko'pchilikni tashkil etdi<sup>24</sup>. Bu davrda institutda A'lo Ashrapov, Oxunjon Sobirov, Tursun Tojiyev (direktor), Muhammad Tohirzoda, V.A.Ananyev, Barot Muzaffarov, Azim Samadov, Tursun Sodiqov, K.Mustafin, Ma'suma Hasanova, Y.Churkin, Tasliya Yadixanova, Shodi Bozorov, A'zam Shermatov, Ochil Tog'ayev, Abdi Umirov, Andrey Sumenkov kabi o'qituvchilar faoliyat ko'rsatdi<sup>25</sup>.

Qarshi o'qituvchilar instituti negizida 1956-yil iyulda O'zbekiston Ministrlar Sovetining qarori bilan Qarshi davlat pedagogika instituti ochildi. 1956-yil avgust oyida institutga talabalar qabuli boshlandi. Institutda o'qish muddati besh yil bo'ldi. Bu davrda institutda 726 nafar talaba tahsil olib, ularga 60 nafar professor-o'qituvchi ta'lim berdi<sup>26</sup>.

Tarix-filologiya fakultetida 1963-yildan boshlab o'zbek tili va adabiyoti ixtisosligi bo'yicha mutaxassislar tayyorlana boshlandi. 1963-1964-o'quv yilida institutda

<sup>17</sup> Qarshi davlat universiteti muzeyi materiallari.

<sup>18</sup> Qarshi davlat universiteti. – Toshkent, 2002. – B. 3.

<sup>19</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 16-ish, 2-4 varaqlar.

<sup>20</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 9-ish, 3-6-varaqlar.

<sup>21</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 16-ish, 9-10-varaqlar.

<sup>22</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 1-ish, 101-varaqlar.

<sup>23</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 37-ish, 7-varaqlar.

<sup>24</sup> Egamov N. Janub javohiri. – B. 20.

<sup>25</sup> Qarshi davlat universiteti muzeyi direktori T.Sodiqov bilan bo'lgan suhbatdan. Qarshi shahri, 2019-yil fevral.

<sup>26</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 115-ish, 1-varaqlar.

ingliz va nemis tillari mutaxassisligi bo'yicha talabalar qabul qilindi. Chet tillar kafedrası ham tashkil etildi<sup>27</sup>.

Qarshi davlat pedagogika instituti tarixida Qurbon O'ljaboyev alohida o'rinni egallaydi. Qurbon O'ljaboyev 1958-1964-yillari hamda 1967-1972-yillari institutni boshqardi. Orada O.Ikromov rektorlik qildi. Uning davrida institut hududi 2 gektardan 56 gektarga kengaytirildi. Ko'chabog' va Oqmasjid qishloqlari aholisi boshqa joyga ko'chirilib, obodonlashtirildi<sup>28</sup>. Bu ishlar keyin professor M.Boltayev davrida davom ettirildi.

1957-1958-o'quv yilida Tog'ay O'rinov muharrirligida institutda "Sovet pedagogi" gazetasi bir oyda bir marta chiqarila boshlandi<sup>29</sup>. 1966-yil 22-apreldan bu gazeta ko'p tirajda nashr etilib, uning muharriri bu davrda Hamdam Hamroyev edi<sup>30</sup>.

1975-1976-o'quv yilida Qarshi davlat pedagogika institutida 5059 nafar talaba ta'lim olib, ularga 215 nafar professor-o'qituvchi ta'lim-tarbiya berdi<sup>31</sup>. 1983-1984-o'quv yilida institutda 9 ta fakultet va 30 ta kafedra, ularda 230 nafar professor-o'qituvchi faoliyat olib bordi. Institutda 15 ta ixtisoslik bo'yicha kadrlar tayyorlandi<sup>32</sup>.

Professor Nortosh O'ljaboyeva Qarshi davlat pedagogika institutida 1987-1992-yillarda rektorlik qilib, u otasi Qurbon O'ljaboyev izidan bordi. U oliygo'h tarixida, qolaversa, janubiy mintaqada rektor lavozimida ishlagan birinchi hamda yagona ayol bo'ldi<sup>33</sup>.

Xullas, Qashqadaryo vohasida tashkil etilgan to'ng'ich oliy o'quv yurti – Qarshi davlat pedagogika institutida moddiy-texnik asoslarni mustahkamlashda, o'quv-tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishda bir qator ishlar amalga oshirildi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi – "*Oliygo'hda ilmiy-tadqiqot ishlarining holati*" deb nomlanadi. Ushbu muassasada ilmiy-tadqiqot ishlari, asosan XX asrning 50 yillaridan boshlangan.

1950-1951-o'quv yilida Qarshi o'qituvchilar tayyorlash institutida ilmiy-tadqiqot ishlari uchun 6 ming rubl atrofida mablag' ajratildi. Katta o'qituvchi Petrushkovning Rossiyaning Leningrad shahriga ilmiy safari uchun pul ajratildi. Shuningdek, RSFSR Pedagogika fanlari akademiyasiga ilmiy safarga borib, tadqiqot ishini olib borishi uchun institutning rus tili va adabiyoti fani o'qituvchisi YE.P.Yansevga ham zarur mablag' berildi<sup>34</sup>. Institutni yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlashni yaxshilash maqsadida mahalliy mutaxassislar markaziy shaharlarga aspiranturada o'qish uchun yuborildi. Masalan, Tasliya Yadixanova Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) shahriga aspiranturaga o'qishga yuborildi. U institutda

<sup>27</sup> Qarshi davlat universiteti muzeyi materiallari.

<sup>28</sup> Qarshi davlat universiteti muzeyi direktori T.Sodiqov bilan bo'lgan suhbatdan. Qarshi shahri, 2019-yil fevral.

<sup>29</sup> QVDA, 1-fond, 1-ro'yxat, 76-ish, 5-varaq.

<sup>30</sup> Qarshi davlat universiteti muzeyi materiallari.

<sup>31</sup> QVDA, 1-fond, 2-ro'yxat, 1039-ish, 5-varaq.

<sup>32</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 975-ish, 8-12-varaqlar.

<sup>33</sup> Muallifning professor Yulduz Ergasheva bilan shaxsiy muloqotidan. Qarshi shahri, 2022-yil 18-oktabr.

<sup>34</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro'yxat, 16-ish, 22-23-varaqlar.

1955-yilda o‘zbek tili bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan birinchi fan nomzodi bo‘ldi<sup>35</sup>.

1955-yilda institutda faqat bir nafar fan nomzodi bo‘lsa, 1956-yilda ular 6 nafarga yetdi<sup>36</sup>. 1965-yilda Tog‘ay O‘rinov, N.Belalov, A.Y.Mizarboyev, Vafo Egamberdiyev, O‘ktam Rahimov, Toshpo‘lat Jovliyevlar nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilishdi. 1966-yilda aspiranturada o‘qiyotganlar soni 47 nafar edi. Shuningdek, 10 nafardan ziyod o‘qituvchi doktorlik dissertatsiyasi ustida izlanish olib bordi. 1964-1966-yilda institut bo‘yicha 10 ta ilmiy to‘plam, 4 ta risola tayyorlab nashr etildi<sup>37</sup>. Bu davrda Qarshi davlat pedagogika instituti uchun ajratilgan aspiranturaga ko‘p hollarda boshqa hudud tadqiqotchilari qabul qilindi. Ular orasida deyarli qashqadaryoliklar bo‘lmagan.

1961-yilning may oyida talabalarning birinchi ilmiy anjumani bo‘lib o‘tib, unda 46 ta ma‘ruza tinglandi va muhokama qilindi<sup>38</sup>.

Institutda pedagog kadrlarni maqsadli aspiranturaga yuborish, stajirovka o‘tash, ta‘til berish va bir yillik aspiranturaga o‘qishga kiritish yo‘li bilan tayyorlash va malakasini oshirishga muayyan darajada e‘tibor qaratildi. 1972-1973-o‘quv yilida maqsadli aspiranturada o‘qish uchun 6 nafar, bir yillik aspiranturaga 2 nafar o‘qituvchi, 13 nafar ikki yillik amaliyot o‘tash uchun markaziy shaharlarga yuborildi. 1972-1973-o‘quv yilida 15 ta nomzodlik dissertatsiyasini nihoyasiga yetkazish rejalashtirilib, ularning 13 nafari muvaffaqiyatli himoya qildi<sup>39</sup>. Anvar Choriyev, Shoniyoz Qurbonov, Malla Ochilov, Obod Jo‘raqulov, Samadulla Mustafoyev, Ochil Ergashev kabi o‘qituvchilar doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilishdi<sup>40</sup>.

Xullas, Qarshi davlat pedagogika instituti Qashqadaryo viloyatidagi to‘ng‘ich oliy ta‘lim muassasasi sifatida tarixga kirdi. Bu davrda Tarix, filologiya va o‘zbek tili, fizika-matematika, kimyo va biologiya, xorijiy tillar sohalarida professor-o‘qituvchilar o‘z ilmiy tadqiqotlarini olib borishdi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi – **“Mustaqillik yillarida Qarshi davlat universitetida o‘quv-tarbiyaviy, ilmiy-tadqiqot va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoni”** deb nomlanib, unda mustaqillik yillarida Qarshi davlat pedagogika institutining universitetga aylantirilishi va oliy ta‘lim muassasasida o‘quv-tarbiyaviy va ilmiy tadqiqot ishlarining borish jarayoni yoritiladi.

Ushbu bobning birinchi paragrafi *“Qarshi davlat universitetida o‘quv-tarbiyaviy ishlarning yo‘lga qo‘yilishi”* deb nomlanib, unda Qarshi davlat universitetini tashkil etilishi bilan bog‘liq tarixiy jarayon, uning hududi, o‘quv binolari, umuman ta‘lim muassasasida o‘quv-tarbiyaviy ishlarning borishi xususida fikr yuritiladi. Dissertatsiyada ta‘kidlanishicha, universitet Qarshi shahar markazida joylashgan bo‘lib, uning hududi 31 gektarni tashkil etdi. Talabalar shaharchasining 7 ta o‘quv korpusida 1800 nafar kishiga mo‘ljallangan 5 ta talabalar uyi hamda hududda 2 ta davolanish maskani (sanatoriy-profilaktoriya va tibbiy yordam ko‘rsatish markazi)

<sup>35</sup> Qarshi davlat universiteti muzey materiallari.

<sup>36</sup> QVDA, 463-fond, 2-ro‘yxat, 73-ish, 12-25-varaqlar.

<sup>37</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 115-ish, 5-18-varaqlar.

<sup>38</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 114-ish, 8-varaq.

<sup>39</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 384-ish, 5-varaq.

<sup>40</sup> QVDA, 463-fond, 1-ro‘yxat, 702-ish, 32-varaq.

mavjud edi. Shuningdek, universitetda ham tez-tez tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib turildi. 1993-yilda ko'plab fakultetlar markazlar birlashtirildi. Masalan, 1993-yil sentabrda fizika bo'limi matematika-fizika fakultetidan ajratilib, Industrial-pedagogika fakultetlari birlashtirildi va Fizika-matematika markaz tashkil etildi. Tarix fakulteti Sosiologiya va iqtisod fakulteti bilan birlashtirilib, "Jamiyatshunoslik" markaziga aylantirildi<sup>41</sup>.

Qarshi davlat universitetida 1994-yilda 3554 nafar<sup>42</sup>, 1995-1996-o'quv yilida esa 4574 nafar talaba tahsil oldi. 1995-yilda universitetda 28 ta ixtisoslik bo'yicha 48 ta kafedra faoliyat ko'rsatdi. Shu o'quv yilida universitetda 485 nafar professor-o'qituvchi talabalarga ta'lim-tarbiya berishdi<sup>43</sup>.

Keyingi yillarda ham oliygo'nda tarkibiy o'zgarishlari davom etdi. 1993-yilda tuzilgan markazlar 1996-yilda yana fakultetlarga aylantirildi<sup>44</sup>.

Qarshi davlat universitetida 1998-yil 18-sentabrda O'zbekiston tarixini o'rganish markazi tashkil etilib, markaz boshlig'i lavozimiga etib professor Obod Juraqulov tayinlandi. Uning rahbarligida markaz universitetda O'zbekiston tarixi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot mavzularini ko'rib chiqish, Qashqadaryo tarixining dolzarb mavzularida ilmiy tadqiqot olib borish va natijalarni risola, monografiya shaklida nashr ettirishni amalga oshirdi. Markazda tadqiqot olib borgan yoshlar ilmiy rahbarlari bilan birgalikda Respublika OTM va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan yaqindan hamkorlik qildi. Mazkur markaz O.Jo'raqulov ilmiy rahbarligida J.Ergasheva, G.E.Mo'minova, M.To'rayeva, M.Sohibova, A.Hasanov kabi yosh tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyalarini tayyorlashdi. F.Rahmonov, N.Rajabovalar nomzodlik dissertatsiya ustida ishlashib, keyinchalik dissertatsiyalarini himoya qildi.

Qarshi davlat universitetida 2001-yil mayda noshirlik markazi tashkil etildi. Dotsent M. Rahmatov markaz boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Markazda 2001-yili 69 bosma taboq hajmida anjuman materiallari va 48 bosma taboq hajmida ikkita monografiya chop etildi. Bu davrda universitet kutubxonasi 550 mingtadan ortiq kitob fondiga ega bo'lib, kutubxonaga har yili o'rtacha 12 mingga yaqin kitob olindi. Ularning asosiy qismi oliy o'quv yurti uchun darslik va qo'llanmalardan iborat edi. Kutubxonaga 2001-yilda 11943 dona kitob qabul qilingan<sup>45</sup>.

O'zbekistonda, jumladan Qarshi davlat universitetida ham magistraturaga qabul 1999-2000-o'quv yilidan boshlandi<sup>46</sup>. Keyingi yillarda ham universitet talabalari soni ortib bordi. 1999-yili Qarshi DU kunduzgi bo'limida 3532 nafar talaba, sirtqi bo'limda 2113 nafar talaba tahsil olgan bo'lsa, 2006-yilda universitetda 7397 nafar talaba tahsil oldi. Shundan, 7288 nafari bakalavr, 109 nafari magistrant edi<sup>47</sup>.

Universitetda yangi yo'nalishlarning ochilishi o'z o'rnida yangi fakultetlarning tashkil etilishiga ham asos bo'ldi. Masalan, 2001-yil 3-iyulda Tabiatshunoslik

<sup>41</sup> Jo'raqulov O. Qarshi davlat universiteti. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 5-20.

<sup>42</sup> O'z MA, M-130-fond, 1-ro'yxat, 228-ish, 11-varaq.

<sup>43</sup> Sodiqov T., Rasulov T., N. Begmatova, Ko'rsatilgan asar. – B. 78.

<sup>44</sup> Jo'raqulov O. Qarshi davlat universiteti. – Toshkent: Fan, 1999. – B. 5-20.

<sup>45</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari.

<sup>46</sup> Qarshi davlat universiteti magistratura bo'limi materiallari.

<sup>47</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari.

fakulteti negizida Biologiya-tuproqshunoslik fakulteti tashkil etildi. 2001-2002-yillari fakultetni biologiya fanlari doktori, professor L.Yoziyev boshqardi<sup>48</sup>.

Qarshi davlat universitetida mustaqillik yillari ochilgan yoʻnalishlardan biri bu iqtisodiyot yoʻnalishi edi. Universitetda Iqtisodiyot yoʻnalishining ochilishi va fakultetining shakllanishida iqtisod fanlari doktori, professor Norboy Uzoqovning xizmati katta boʻldi<sup>49</sup>.

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2010-yil 27-yanvardagi PQ-1271-sonli “Barkamol avlod yili” Davlat dasturini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qaroriga asosan Qarshi davlat universitetining 1200 oʻrinli bosh oʻquv binosi kapital taʼmirlash ishlari uchun davlat byudjetidan 1,5 mln. soʻm, homiylik hisobidan 1,0 mln. soʻm mablagʻ ajratildi. 1500 oʻrinli yangi oʻquv binosi qurilishi 2012-yilning 31-martida (Yakkabogʻ qoʻrgʻoni injiniring kompaniyasi, loyiha smetasi 13842,0 mln. soʻm) boshlandi<sup>50</sup>.

2019-yilning 8-iyul kuni universitet bosh binosi roʻparasida kitobga ramziy ishnot – “Kitoblar monumenti” oʻrnatildi. Monumentda 12 dona eng nodir asarlar toʻplami joy olib, uning muallifi Karim Alimov hisoblanadi<sup>51</sup>.

Qarshi davlat universiteti viloyat taʼlim muassasalarini kadrlar bilan taʼminlovchi asosiy oliy oʻquv yurti hisoblanadi. 2017-2018-oʻquv yilida universitetni jami 1622 nafar talaba bitirdi. Shundan 27 ta taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha 1151 nafar (471 nafar davlat granti, 1151 nafar toʻlov-kontrakt) bakalavrlar edi<sup>52</sup>. Universitet jahonning nomdor universitetlari orasida oʻzining munosib oʻrnini egallab, qator xorijiy OTMLar bilan hamkorlik aloqalarini yoʻlga qoʻydi. Jumladan, oliygohda 2019-2020-oʻquv yilida 3 ta, xususan, Belgorod davlat universiteti bilan hamkorlikda 2 ta, Moskva davlat lingvistik universiteti bilan hamkorlikda 1 ta qoʻshma taʼlim dasturi boʻyicha shartnoma imzolandi<sup>53</sup>.

2019-2020-oʻquv yili uchun Qarshi davlat universiteti bakalavr yoʻnalishlariga 2080 nafar, shundan 460 nafari davlat granti, 1620 nafari toʻlov-kontrakt asosida, magistratura mutaxassisliklariga esa 116 nafar, shundan 61 nafar davlat granti, 55 nafar toʻlov-kontrakt asosida qabul kvotalari ajratildi<sup>54</sup>.

Ikkinchi bobning ikkinchi paragrafida “*Universitetda ilmiy-tadqiqot ishlari va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash jarayonlari*” tahlil etiladi. Qarshi davlat universitetida ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirish va natijaviy samaradorligini oshirish oʻz-oʻzini mablagʻ bilan taʼminlash maqsadida ilmiy ishlab chiqarish markazlari, kichik korxonalar va oʻzaro hamkorlik shartnomalari tuzildi. Jumladan, mustaqillikning dastlabki yillarda Qarshi davlat uiversiteti huzurida “Zarrin nur”, “Muhit”, “Nurlan” ilmiy ishlab chiqarish va kichik korxonalari faoliyat koʻrsatdi. Ularda 30 nafardan ortiq ilmiy izlanuvchilar va texnik xodimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishdi<sup>55</sup>. 1993-yildan universitetda ilmiy-tadqiqot va tajriba-

<sup>48</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari.

<sup>49</sup> Qarshi davlat universiteti Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasini joriy arxivi materiallari.

<sup>50</sup> Qarshi universiteti, 2015-yil, mart.

<sup>51</sup> Qarshi universiteti, 2019-yil, avgust.

<sup>52</sup> Gapparov A. Universitetda “Karyera kuni” // Qarshi universiteti, 2018-yil 17-aprel.

<sup>53</sup> Qarshi universiteti, 2019-yil, dekabr.

<sup>54</sup> Qarshi universiteti, 2019-yil, iyun.

<sup>55</sup> Oʻz MA, M-130-fond, 1-roʻyxat, 228-ish, 7-varaq.

konstruktorlik ishlarini yanada rivojlantirish, ularni amaliyotga joriy etish uchun ishlab chiqarish markazi tashkil etildi. Ushbu ilmiy markazga universitet rektori, O‘zbekiston FANing muhbir a‘zosi, professor T.F.Bekmuradov ilmiy rahbarlik qildi<sup>56</sup>.

OTMLarida ilm-fanni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri ilmiy amaliy anjumanlar ekanligini hisobga olgan holda, ushbu tadbirlarni kengroq o‘tkazishga harakat qilindi. 1994-yil 30-noyabr – 1-dekabrda oliygohda “Qashqadaryo mintaqasida energetika sanoat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi ekologik muammolar” masalasiga bag‘ishlangan Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi. Universitetda 49 ta kafedra faoliyat ko‘rsatib, ularda 20 nafar fan doktori, professor, shundan bir nafar O‘zbekiston FANing muhbir a‘zosi t.f.d, professor, 178 nafar fan nomzodlari, dosentlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishdi<sup>57</sup>.

1993-yildan boshlab Qarshi davlat universitetda aspirantura ochildi. Universitetda 1994-yili 2 nafar doktorant, 27 nafar aspirant ta‘lim oldi. 1996-yilda aspiranturaga 14 mutaxassislik bo‘yicha kunduzgi bo‘limga 11 va sirtqi bo‘limga 2 nafar aspirant qabul qilingan bo‘lsa, 2001-yilda 9 mutaxassislik bo‘yicha kunduzgi bo‘limga 9 nafar aspirant qabul qilindi. Universitet olimlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat patent idorasi tomonidan 1996-yili 2 ta, 1997-yili 2 ta, 1998-yil 2 ta, 2000-yili 4 ta, 2001-yili 4 ta ixtiro taklifiga patent olishdi<sup>58</sup>.

Bu davrda Qarshi davlat universiteti professor-o‘qituvchilari, aspirant va mustaqil tadqiqotchilari tomonidan 4 ta darslik, shundan 1 tasi elektron o‘quv darslik, 12 ta monografiya, 17 ta risola, 50 ta o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar chop etildi. Jumladan, “Sharq” nashriyotida T.G‘afforova va boshqalarning umumiy o‘rta ta‘lim maktablari 1-sinflari uchun “Ona tili” va “O‘qish kitobi” qayta nashr qilindi, 2-sinflar uchun “O‘qish kitobi” yangidan yozildi va chop qilindi<sup>59</sup>.

Umuman, 2011-2012-o‘quv yilida universitet kafedralari tomonidan xo‘jalik shartnomalari, pullik kurslar bo‘yicha hamda homiy tashkilotlar bilan 280 mln. so‘mlik shartnomalar tuzilib, ushbu shartnomalar asosida universitet hisob raqamiga mablag‘lar tushirildi<sup>60</sup>.

Universitet fakultetlarida ilmiy ishlar ko‘lamidan kelib chiqib, ilmiy salohiyat kafedralarda turlicha bo‘ldi. Masalan, O‘zbek filologiyasi fakultetida bu ko‘rsatkich 71 foiz bo‘lsa, Tabiatshunoslik va geografiya fakultetida 55 foiz, Tarix fakultetida 52,0 foiz, Fizika-matematika fakultetida 46,8 foiz, Kasbiy ta‘lim fakultetida 37,3 foiz, Pedagogika-psixologiya fakultetida 24,8 foiz, Jismoniy madaniyat fakultetida 23 foiz, Roman-german filologiyasi fakultetida 10 foiz edi<sup>61</sup>.

2015-2016-o‘quv yili mobaynida universitet professor-o‘qituvchilari tomonidan 5 ta darslik, 18 ta monografiya, 3 ta risola, 25 ta o‘quv va o‘quv-uslubiy qo‘llanma nashr etildi. 2016-yilda Qarshi davlat universitetida 7 ta ilmiy-amaliy anjuman

<sup>56</sup> O‘z MA, M-130-fond, 1-ro‘yxat, 228-ish, 8-varaq.

<sup>57</sup> O‘z MA, M-130-fond, 1-ro‘yxat, 228-ish, 7-varaq.

<sup>58</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari.

<sup>59</sup> O‘z MA, M-26-fond, 1-ro‘yxat, 140-ish, 105-varaq.

<sup>60</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi materiallari.

<sup>61</sup> Qarshi davlat universiteti joriy arxivi, Ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limining 2013-yil hisobotlari ma‘lumotnomasi papkasi.

